



TIL O'QITISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Siddiqova Durdona Furqat qizi

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada til o'qitish jarayonining zamonaviy muammolari hamda ularning ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida chet tillarini bilish zarurati ortib borayotgan bir paytda, o'qitish metodikasi va ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Maqolada o'quvchilarning motivatsiyasi, nazariya va amaliyot o'rtasidagi nomutanosiblik, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi, individual yondashuvning yetishmasligi hamda baholash tizimidagi kamchiliklar yoritib berilgan. Statistik ma'lumotlar va ilmiy manbalar asosida muammoning dolzarbligi asoslab beriladi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yechim taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Til o'qitish, zamonaviy metodika, kommunikativ yondashuv, motivatsiya, kompetensiya, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta'lim, baholash tizimi, innovatsion pedagogika.

Annotation: In diesem Artikel werden die modernen Probleme des Sprachunterrichts sowie deren Einfluss auf die Qualität und Effektivität der Bildung analysiert. Unter den Bedingungen der Globalisierung steigt die Notwendigkeit, Fremdsprachen zu beherrschen. Gleichzeitig entstehen jedoch eine Reihe von Problemen im Zusammenhang mit der Unterrichtsmethodik und der Organisation des Bildungsprozesses. Im Artikel werden die Motivation der Lernenden, das Ungleichgewicht zwischen Theorie und Praxis, der Einsatz digitaler Technologien, der Mangel an individueller Förderung sowie Schwächen im Bewertungssystem behandelt. Auf der Grundlage statistischer Daten und wissenschaftlicher Quellen wird die Aktualität des Problems begründet und es werden Lösungen auf der Basis moderner pädagogischer Ansätze vorgeschlagen.



Schlüsselwörter: Sprachunterricht, moderne Methodik, kommunikativer Ansatz, Motivation, Kompetenz, digitale Technologien, interaktiver Unterricht, Bewertungssystem, innovative Pädagogik.

Abstract: This article analyzes the modern challenges in language teaching and their impact on the quality and effectiveness of education. In the context of globalization, the need to master foreign languages is increasing. At the same time, several issues arise related to teaching methodology and the organization of the educational process. The article highlights student's motivation, the imbalance between theory and practice, the level of digital technologies, the lack of individual approach, and shortcomings in the assessment system. Based on statistical data and scientific sources, the relevance of the problem is justified, and solutions are proposed based on modern pedagogical approaches.

Key words: Language teaching, modern methodology, communicative approach, motivation, competence, digital technologies, interactive learning, assessment system, innovative pedagogy

Аннотация: В данной статье анализируются современные проблемы преподавания языков и их влияние на качество и эффективность образования. В условиях глобализации возрастает необходимость владения иностранными языками. В то же время возникает ряд проблем, связанных с методикой обучения и организацией образовательного процесса. В статье рассматриваются мотивация учащихся, несоответствие между теорией и практикой, уровень использования цифровых технологий, недостаток индивидуального подхода, а также недостатки системы оценивания. На основе статистических данных и научных источников обосновывается актуальность проблемы и предлагаются решения на основе современных педагогических подходов.

Ключевые слова: Преподавание языков, современная методика, коммуникативный подход, мотивация, компетенция, цифровые технологии, интерактивное обучение, система оценивания, инновационная педагогика.



KIRISH

XXI asrda chet tillarini bilish shaxsning kasbiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Xalqaro hamkorlik, akademik almashinuv va global mehnat bozorida raqobatdoshlik til bilish darajasi bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda globallashuv va axborotlashuv davrida xorijiy tillarni bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki professional muvaffaqiyat uchun ham muhim omilga aylandi. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda til o'qitish tizimini takomillashtirish ustuvor vazifaga aylangan. Biroq zamonaviy ta'lim jarayonida til o'qitish bilan bir qator muammolar mavjud va ular o'quvchilarning tilni puxta o'rganishiga to'sqinli qilmoqda. Council of Europe tomonidan ishlab chiqilgan CEFR tizimi til bilish darajasini xalqaro mezon asosida baholashni yo'lga qo'ydi. Biroq amaliyotda ushbu standartlarga erishish jarayonida qator muammolar kuzatilmoqda. Ushbu maqolada ana shu muammolar va ularning yechimlari haqida so'z yuritiladi.

1. Motivatsiya muammosi:

Jeremy Harmer o'zining How to teach English asarida til o'rganishda ichki motivatsiya hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydi. Agar o'quvchi tilni shaxsiy ehtiyoj va qiziqish asosida o'rganmasa, natija barqaror bo'lmaydi. Ko'plab o'quvchilar tilni ichki ehtiyjdan ko'ra tashqi majburiyatlar va bosim sababli o'rganishadi. Masalan, imtihondan o'tish yoki diplom olish uchun uzoq muddat o'rganilgan til bilimga aylanmasligi mumkin. Shuningdek, ayrim o'quvchilarda nutqiy xatolardan qo'rqish, uyatchanlik yoki o'ziga ishonchsizlik kabi psixologik to'siqlar mavjud bo'lib, bu o'quvchilarning efrkin fikrlashi va gapirishlariga to'sqinlik qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xalqaro tadqiqotlar natijasida o'quvchilarning qariyb 60-70% qismi chet tilini faqat imtihon topshirish maqsadida o'rganishi aniqlangan. Bu esa kommunikativ ko'nikmalarning sust rivojlanishiga olib keladi.

Yechim:



O'quvchilar bilan kommunikativ metodlarni qo'llash, rag'batlantirish tizimini kuchaytirish, dars vaqtini uzaytirish va dars muhitini qo'llab – quvvatlovchi qilish muhimdir.

2. Nazariy va amaliyot o'rtasidagi nomutanosiblik:

Jack C.Richards va Theodore S. Rodgers o'zlarining *Approaches and Methods in Language Teaching* asarida zamonaviy metodikaning asosiy maqsadi kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ekanligini qayd etadi.

Biroq ko'plab ta'lim muassasalarida grammatika qoidalariga ortiqcha urg'u berilib, og'zaki nutq va tinglab tushunish mashqlari yetarli darajada tashkil etilmaydi. Natijada o'quvchi test savollarini yecha oladi ammo real hayotda muloqot qila olmaydi. Gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuza oladi, testlarni yaxshi ishlaydi, lug'atlarni yodlaydi ammo muloqot ko'nikmalari amalda yo'q va gapira olmaydi.

Yechim:

Dars vaqtini uzaytirish, ro'l o'yinlari, debatlar, loyihaviy ishlar va interaktiv mashg'ulotlar sonini oshirish lozim.

3. Raqamli texnologiyalardan foydalanish muammosi:

H.Douglas Brown *Principles of Language Learning and Teaching* asarida zamonaviy ta'limda texnologiyalarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Multimedia vositalari, onlayn platformalar va inetraktiv dasturlar til o'rganish samaradorligini oshiradi.

Ma'lumotlarga qaraganda, raqamli vositalardan muntazam foydalanadigan guruhlarda til o'zlashtirish darajasi 25-30% dan yuqoriroq bo'ladi. Shunga qaramay, ayrim hududlarda texnik imkoniyatlar yetishmasligi muammo bo'lib qolmoqda. Internet sifati, interaktiv doskalar va multimedia vositalari yetishmasligi dars samaradorligini pasaytiradiva bundan tashqari, ba'zi o'qituvchilar raqamli platformalardan foydalanish bo'yicha ko'nikmaga ega emas. Bunga yechim o'qituvchilar uchun Malaka oshirish kurslarini tashkil etish va ta'lim jarayonini raqamlashtirish muhim ahamiyatga ega.



4. Individual yondashuvning yetishmasligi:

Har bir o'quvchining o'ziga xos o'rganish uslubi mavjud. Diane Larsen - Freeman ta'kidlaganidek, differensial yondashuv o'quvchilarni natijasini sezilarli oshiradi. Har bir o'quvchining bilim darajasi, o'rganish tezligi va qiziqishi turlicha. Katta guruhlarda esa har bi o'quvchi bilan individual ishlash imkoniyati cheklangan. Bu esa ayrim o'quvchilarning ortda qolishiga sabab bo'ladi.

5. Baholash tizimidagi muammolar:

Zamonaviy ta'lim tizimi doimiy yangilanishni talab qiladi. Penny Ur fikriga ko'ra, baholash tizimi faqat grammatik bilimni emas, balki og'zaki va yozma nutqni ham qamrab olishi zarur. Testga yo'naltirilgan baholash tizimi erkin va ijodiy fikrlashni cheklashi mumkin. Metodik yondashuvlar, baholash tizimi va dars o'tish usullari tez - tez yangilanib turishi lozim. Shuning uchun yozma ish, og'zaki suhbat, prezentatsiya va loyiha asosida baholash tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiq.

6. O'qituvchining kasbiy rivoji:

Zamonaviy pedagog doimiy o'rganish jarayonida bo'lish zarur. Seminar, trening va xalqaro tajriba almashish dastirlari metodik yangilanishni ta'minlaydi. O'qituvchi qanchalik malakali, bolalarni darsga qiziqtiradigan bo'lsa, ta'lim sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Agar o'qituvchi o'z ustida ishlamasa ta'lim sifati pasayib ketishi mumkin.

XULOSA

Til o'qitishning zamonaviy muammolari ko'p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladi. Motivatsiyani oshirish, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, individual yondashuvni kuchaytirish, zamonaviy metodlardan va online platformalardan foydalanish hamda kompleks baholash tizimini tatbiq etish va dars vaqtlarini uzaytirish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Texnologik muammolar, amaliy mashg'ulotlar yetishmasligi ta'lim sifatini pasaytirmoqda. Shu bilan birga, ushbu muammolarni hal etish imkoniyatlari ham mavjud. O'qituvchilarning kasbiy rivojini ta'minlash orqali til o'qitish sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Til o'rganish jarayoni nafaqat nazariy bilim



berishi, grammatika bilan ko'proq shug'ullanmasdan balki real hayotiy muloqotga tayyorlashga qaratilgan bo'lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jeremy Harmer (2007) How to Teach English - Harlow: Longman
2. Jack C. Richards, Theodore S. Rodgers (2014) Approaches and Methods in Language Teaching - Cambridge: Cambridge University Press
3. H. Douglas Brown (2007) Principles of Language Learning and Teaching - New York: Pearson Education
4. Penny Ur (2012) A Course in Language Teaching - Cambridge University Press
5. Council of Europe (2001) Common European Framework of Reference for Languages (CEFR)- Cambridge University Press
6. Jalolov J. (2012) Chet tilini o'qitish metodikasi - Toshkent